

YOSHLARNI VERTUAL OLAMGA MUNOSABATI VA UNING YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI

*Oqilova Zuhra Ikromjon qizi
Shuxratjonova Rixsinisaxon Nasrulla qizi
NamDU psixologiya yo'nalishi talabalari*

Annotatsiya : Ushbu maqolada yoshlarni virtual olamga qiziqishlari tashqi muhitga va ularning ongiga ta'siri hamda ularga qanchalik zarar va foyda tomonlar borligi to'g'risida fikr yuritilgan.

Аннотация: В данной статье рассматривается влияние интереса молодых людей к виртуальному миру на внешнюю среду и их сознание, и сколько в них вреда и пользы.

Abstract: This article discusses the effect of young people's interest in the virtual world on the external environment and their minds, and how much harm and benefits there are to them.

Kalit so'zlar: virtual, ong, iroda, idrok, diqqat, avftomatsiya, gajet.

Ключевые слова: виртуальный, сознание, воля, восприятие, внимание, автоматизация, гаджет.

Key words: virtual, consciousness, will, perception, attention, automation, gadget.

Shiddat bilan rivojlanayotgan zamonamizda yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Joriy yilgacha yoshlarni barcha sohada xususan sport, san'at, musiqa, ta'lim, yuridik sohalarda jumladan virtual olam hissoblangan intirnetda ham ilg'or rivonlanib va rivojlantirilib kelinmoqda. Davlatlar o'rtasidagi o'zaro muloqotlar ham albatta internet tarmoqlariga bog'liq. Hozirgi vaqtda kompyuter barcha sohalarga jadal kirib kelmoqda. Shunday rivojlanish maqsadida yo'lga qo'yilgan say harakatlarni suiste'mol qilib yurgan yoshlar ham talaygina. Aynan ular o'z vaqtlarini kompyuter o'yinlariga bag'ishlashlari achinarlik holat. Kompyuter o'yinlari – XX asr mo'jizasi ixtirosi sifatida jamiyatda yoshlar orasida keng quloch yozdi. Bu o'yinlar yoshlarni ongini shu darajada egallab oldiki hatto ular haqiqiy dunyo bilan virtual olamni unutib qo'yish darajasiga kelib qoldilar. Bu shuni ko'rsatadiki hoxlab yoki hoxlamay hozirgi zamon yoshlari taqdiriga befarq holatda o'z umrining mazmunini virtual olamga bog'lashga ulgurdi.

Shu holatga psixologik nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak miya uchun qancha ko'p va murakkab ma'lumotlarni olsak miyamizda yangi ma'lumotlarni olish uchun yana ehtiyoj, yana mativ va yana harakat oshib boradi . Buni aksi bo'lasa ya'ni miyani u uchun oson bo'lgan keraksiz harakatlar-holatlar bilan to'ldirib borsak miyada

tormozlanish paydo bo‘ladi va atrof olamni anglash, idrok qilish qobiliyatlarini pasayib borishini kuzatishimiz mumkin. Yoshlarni kompyuter o‘yinlariga berilishida ularga tashqi ya’ni satsio-ijtimoiy muhit katta ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchilarning fikricha yigitlar kattalardan ko‘ra o‘z tengdoshlarini domiga tezroq va oson tushadi. Qizlarda esa aksincha tengdoshlaridan ko‘ra kattalarni ta’sir kuchi yuqoriroq bo‘ladi[1.128-b].

Djon Lok shuni misol qilib ko‘rsatadiki, ”Menga ikkita chaqaloqni bersangiz ulardan birini tarbiyasi og‘ir, tashqi olam bilan muloqotga kirishishi qiyin odamovi xarakteri juda tez qo‘zg‘aluvchan qilib tarbiyalashni, ikkinchisini esa tarbiya tomonlama ham ta’lim tomonlama ham mukammal shaxs qilib tarbiyalab berishini aytadi[2]. Bundan ko‘rinadiki shaxs shakillanib kamol topishi uchun har bir davrda qandaydir to‘siq qandaydir imkoniyat o‘z vazifasini bajarib boraveradi. Qoshtirnoq ichidagi ayrim yoshlar ham o‘z ehtiyojlarini shu kompyuter o‘yinlari orqali to‘ldirishga harakat qiladilar bu holat vaqt o‘tgan sayin odat, ko‘nikma keyinchalik esa avftomatlashgan ko‘rinishda tus olib boradi. Ong esa o‘zi hojlamasada kompyuter o‘yinlaridan zavqlanish hissini tuyib boradi va yoshlarni irodasi, mativlari, qiziqishlari aynan shunga ya’ni kompyuter o‘yinlariga yo‘nalgan holatga kelib qoladi. Vertual so‘zi (lotincha-haqiqiy fazilat mavjud) –bu texnik vositalar yordamida yaratilgan va moddiy dunyoni idrok etish uchun odamga odatiy his –tuyg‘ular orqali uzatilgan dunyo . Intirnet bo‘lmasa virtual dunyo hozirgi kabi bo‘lmaydi . Shu sohaning tadqiqotchisi Shoh Kelli aytgan edi –“Yangi texnologiya paydo bo‘lmoqda u bir kun kelib odamlarning elektron qurilmalar bilan o‘zaro munosabatini va odamning bir-biri bilan o‘zaro munosabatini o‘zagartiradi.”[3]

Bugungi kunning zamonaviy fani bunga ishonadi Koinotning 99% qandaydir bo‘shliqdan iborat. U qorong‘ulikdan iborat chunki ularda yoruqli yetarli emas, zamonaviy ilm- fan ham bu to‘g‘risida yetarli ma’lumotga ega emas. Gap shundaki inson miyasi tuzulishi xuddi olamga o‘xshaydi u kabi cheksizlikdan, qorong‘ulikdan iborat. Biz tafakkurimizni qancha ishga solsak bizning ong doiramiz yanada kengayib va yorqinlashib boradi. Kompyuter o‘yinlariga berilgan yoshlarimiz ham ongli tiriklikning maxsuli, bu o‘yinlarning domiga ongli holatda tushib qolgan faqatgina dunyoqarashi past, irodasi sust, mulohazasi tor bo‘lganligi sabab shu yo‘ladadir. Ko‘pchilik o‘yinchilar yarim soat o‘yindan so‘ng o‘yin qahramoni bilan bir insonga aylanishlarini aytadilar. O‘yinchi insonligicha qoladi ammo atrofi xona emas, balki umuman boshqa olamga aylanadi . Shu olamni u o‘yindan tashqari hayot, haqiqiy hayot kabi his etadi. O‘yinchi o‘yinga kirishar ekan atrofni boshqa olam kabi his etadi dedik, endi buning uchun ham unda diqqat, iroda, tasavvur etish, aks ettirish, kabi bilish jarayonlari rivojlangan bo‘lishi kerak. Sog‘lom avlod kompyuter o‘yinlariga qiziqishi sabab zoombiga aylanib qolmoqda, bu holat barchamizga sir emas.

Chunki bunday holatlarni hozir gapimasak, hozir bartaraf qilmasak ertaga siz, biz, butun jamiyatimiz manashu yoshlarni qo‘lida axvoli tang bo‘lib qolib ketishi hech gap emas. Bir joyda to‘xtab qolishimiz allomalarimizning izlanishlariga ilm tolibi bo‘lib o‘tishganlariga kerilib yuraversak bu bilan albatta Vatanga xiyonat qilgan bo‘lamiz Shu o‘rinda Prezidentimiz Sh.M.Miromonovichning hikmatli gaplarini keltirishni joiz deb bildik. ‘‘Erishgan yutuqlariga mahliyo bo‘lib o‘tirish aqilli odamning ishi emas’’[6] degan ajoyib o‘xshatishni keltirib o‘tgan edilar. Yoshlardada bunday foydasiz narsalarga berilishi jamiyatnin og‘riqlik nuqsagi aylanishi haqiqiy muammolardan biri hissoylanadi. Yoshlarni, farzandlarni og‘riqli nuqtasiga aylanishida ularning ota-onasi katta ahamiyatga ega. Biz ota-onani aybdor qilmoqchi emasmiz shunchaki farzand tarbiyasi uchun mas’ul shaxs sifatida qaraymiz. Oddiygina e’tiborsizlik orqasidan keladigan muammo ota-ona, jamiyat uchun falokat. Yoshlarni kompyuterga qiziqishlarini albatta qoramamaymiz bu qiziqishni shakllantirish to‘g‘ri yo‘naltirishimiz natijasidagini ma’lum yutuqqa erishamiz. Ota –onalar xususan jamiyatimiz ham yoshlarga e’tiborini yanada kuchliroq qaratilsa va bunga javoban yoshlar ham yuqori cho‘qqilarni ko‘zlasa halol raqobat tarafdori bo‘lsa kelajakda raqobatbardosh o‘z sohasining mutaxasisi bolib shakillanadi.

Yevropa faylasuflaridan biri Julian La Metri aytishicha –“ Miya tananing a’zosi sifatida yaxshi shakllangan va unga to‘g‘ri yo‘nalishda ta’lim berilishi- mukammal darajada ekilgan urug‘ning yuz barobar ortig‘i bilan hosil berishi kabidir.[4] Atrofdagi dunyo haqidagi ma’lumotning aksariyati bizning qiziuvcchan miyamizning ixtirosi .Rus psixologi Valeriy Sinelnikov aytadi -“ Olam odamlar uchun qiziq bo‘lmay qoldi. Odamlar o‘ziga va atrof olamga buyuk sir deb qaramay qo‘ydi.[5]

Xulosa qilib aytganda, buning asosiy sababi bir xil hayot kechirish ekanligi, yangilikka intilmasligi yangiliklarni izlab o‘ylab topmasligi biror soxaga yangilik kiritilmasligida deb bilamiz. Vertual olamga tobelik shu darajada kuchaydiki yosh onalar ham qisman bo‘lsada shuning ta’siriga tushganligi sabablik ham tug‘iladigan farzandlar, gajetlarga moyilligi kuchlik bo‘lib dunyoga kelmoqda. Shuning uchun ham bugungi kunda Navoiy, Beruniy, Ibn Sino, Aristotel, Enishten kabi fan arboblari keskin yetishmovchiligi ortib boryapti Shuni inobatga olgan holatda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich shuni takidlab o‘tdilaki –“yoshlarga mashina sovg‘a qilib bo‘lsa ham kitobga qaytaraman” deb oldilariga ulkan maqsad qo‘ydilar. Buning ijrosi albatta biz yoshlar tomonidan bo‘ladi. Bugun tinim bilmay kitob o‘qiyotganlar izlanayotganlar yoshlar kun kelib vaqtini kompyuter o‘yinlariga bag‘ishlaganlar ustidan hokimlik qiladi. Vaqt umr o‘tib boraveradi, lekin bizga hadya qilib berilgan umrni kim qanday yashab o‘tadi bu albatta uning o‘ziga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1 Shavket Mirziyoyev. <http://prezident.hikmatlari>.
- 2 E. G‘oziyev. “Ontogenez psixologiyasi” 128 b.
- 3 Vleriy Sinelnikov “Niyatning kuchi”, Buxoro nashiryoti–2015 21 bet.
- 4 Shoh Kelli “Psixologik ximoya” olimp-gym.ru.
- 5 <https://uzonto-psixologiya.com/>
- 6 Odilboyevich J. H. SHAXS VA UNING TEMPERAMENTIDA PSIXOLOGIK HIMOYA MEKANIZMLARINING ORNI VA AXAMIYATI MOSLASHISHDA UNING TARKIBIY QISMLARI //MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH. – 2023. – Т. 2. – №. 19. – С. 78-84.
- 7 Одилбоевич Ж. Х. ШАХС ВА УНДАГИ ПСИХОПАТИЯ ХОЛАТЛАРИ КЕЛИБ ЧИҚИШ САБАБЛАРИ ВА ПРОФИЛАКТИКАСИ //PEDAGOG. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 693-699.
- 8 Haydarjon J. SHAXS IJTIMOIIY XIMOYASIZLIGINIOGISHGAN XULQ ATVORGA TASIRINI IJTIMOIIY PSIXOANALITIK MEKANIZMLARI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 9-12.
- 9 Odilboyevich, J. H. (2023). SHAXSLARARO MULOQOT DAVOMIDA MULOQOTNING VERBAL VA NOVERBAL HARAKATLARDA SHAXNING KOZ QARASHLARI VA YUZ MIMIKASIGA QARAB YOLG ‘ON ALOMATLARINI ANIQLASHNING PSIXOLOGIK TAVSIFI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 15(5), 59-64.
- 10 Курбанова З. Касбий аутоидентификация шаклланишининг босқичлари //Oriental Art and Culture. – 2020. – №. II. – С. 175-179.